

## **Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2023-yilning II- choragida amalga oshirilgan ishlar**

Fargʻona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yigʻilishini boshqarma boshligʻi Sh. Mamadaliyev ochib berdi va yigʻilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib oʻtdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2023-yilning II choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik maʼlumotlarni keltirib oʻtdi.

Jumladan, dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023- yilning yanvar-iyunida Fargʻona viloyati boʻyicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi oʻrinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 29396,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,6 %ga oʻsdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 14 968,7 mlrd.soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 104,2 % ni tashkil etdi.

2023–yilning yanvar–iyun oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 16088,5 mlrd. soʻmni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 104,5 %ni miqdorida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida, Fargʻona viloyati jami 4 723,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 121,3 %ni tashkil etdi.

Roʻyxatdan oʻtgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023-yilning 1-iyul holatiga koʻra (fermer va dehqon xoʻjaliklarisiz) **59 857** tani tashkil etib, ulardan **42 057** tasi yoki **70,3** % i faoliyat koʻrsatmoqda. 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda **4 517** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa 2022-yilning mos davriga nisbatan **20** taga kam.

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi 12,4 trln. soʻmni, 2022-yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati **106,3** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 10,6 trln soʻmni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **106,6** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2023-yilning yanvar-iyun oylarida 970,9 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 339,7 mln. AQSH dollari va import – 631,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, Fargʻona viloyatining doimiy aholi soni 4014,8 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 83,7 ming kishiga yoki 2,1%ga koʻpaydi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida 8352,6 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirilib, ularning 58,9 %i yoki 4918,2 mlrd. soʻmi jalb etilgan mablagʻlar hisobidan moliyalashtirilgan boʻlsa, korxonalar, tashkilot va aholining oʻz mablagʻlari hisobidan 41,1 % yoki 3434,4 mlrd. soʻm moliyalashtirildi. moliyalashtirish manbalari hisobidan 7096,6 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalarning 85,0 % oʻzlashtirilib, 2022- yildagi koʻrsatkichga nisbatan 5,1% punktga kamaydi.